

## SUN'IY INTELLEKT HARAKATLARI UCHUN JAVOBGARLIK MASALALARINING HUQUQIY TAHLILI

*Atamuratova Nasiba Qurbanbay qizi*  
*Toshkent davlat yuridik universiteti talabasi*

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada sun'iy intellekt tomonidan xato qarorlar qabul qilish natijasida yuz bergan voqealar, zararlar natijasida yuzaga keladigan javobgarlik masalalari tahlil qilinadi. Xususan, sun'iy intellektning xato qarorlar qabul qilishi natijasida yetkazilgan zarar uchun javobgarlik masalasi, ushbu masalaga nisbatan turli xil huquq tizimlaridagi yondashuvlarning qiyosiy-huquqiy tahlili hamda ushbu masalani tartibga solishda O'zbekiston uchun optimal bo'lgan taribga solish mexanizmlari ko'rib chiqiladi.

**Kalit so'zlar:** sun'iy intellekt, huquqiy layoqat, ma'suliyat, huquqiy javobgarlik, javobgarlik subyekti, algoritmik javobgarlik, mahsulot javobgarligi.

**Аннотация.** В данной статье анализируются случаи, возникающие в результате ошибочных решений, принятых искусственным интеллектом, а также вопросы ответственности, возникающей вследствие причинённого ущерба. В частности, рассматривается вопрос об ответственности за вред, причинённый в результате принятия искусственным интеллектом ошибочных решений, сравнительно-правовой анализ подходов к данному вопросу в различных правовых системах, а также оптимальные механизмы регулирования данного вопроса для Узбекистана.

**Ключевые слова:** искусственный интеллект, правосубъектность, ответственность, юридическая ответственность, субъект ответственности, алгоритмическая ответственность, ответственность за качество продукции.

**Abstract.** This article analyzes incidents arising from erroneous decisions made by artificial intelligence and the liability issues resulting from the damages caused thereby. In particular, the article examines the question of liability for harm caused by artificial intelligence's faulty decision-making, a comparative legal analysis of approaches to this issue across various legal systems, and the optimal regulatory mechanisms for Uzbekistan in governing this matter.

**Keywords:** artificial intelligence, legal capacity, responsibility, legal liability, subject of liability, algorithmic accountability, product liability.

### **Kirish**

Hozirgi kunda hayotimizning deyarli barcha jabhalarida sun'iy intellekt (SI) qo'llanilib, ularning turli sohalarda qo'llanilishi samaradorlikni oshirish bilan birga, bir

**(14th international scientific and practical conference)**

qancha muammolarni ham keltirib chiqarmoqda. Jumladan, SI ning qaror qabul qilishi juda ko'p algoritm formulalari va o'zgaruvchilarga bog'liq bo'lganligi sababli ham uning mustaqil ravishda qabul qilgan qarorlari, bergan ma'lumotlari natijasida yuzaga keladigan zararlar uchun javobgarlik masalasi ochiq qolmoqda.

Bilamizki, dunyo mamlakatlari va O'zbekiston Respublikasi qonunchiligida ham faqatgina jismoniy va yuridik shaxslarigina subyekt sifatida belgilagan bo'lib, SI esa huquqiy shaxs maqomiga ega emas. Shu sababli ham turli huquq oilalarida ushbu holatda yuzaga keladigan javobgarlikni platforma egasi, foydalanuvchi yoki ishlab chiqaruvchi o'rtasida taqsimlash masalasida turli xil nazariyalar shakllanmoqda.

Hozirda SI ning fuqarolik huquqiy maqomini aniqlashda uchta asosiy tushuncha mavjud bo'lib, ular quyidagilardan iborat:

1. Huquqiy munosabatlarda SI ni fuqarolik-huquqiy munosabatlarning obyekt sifatida tan olish va uni ashyolar turkumiga kiritish;
2. Uni fuqarolik-huquqiy munosabat subyekt sifatida qarab, uni subyektiv huquq va majburiyatlarga ega, o'zining va boshqalar harakatlarining ahamiyatini anglovchi va baholovchi hamda o'zi mustaqil harakat qiluvchi deb tan olish;
3. Ularning fuqarolik-huquqiy munosabatlardagi o'rnini alohida, ya'ni ham subyekt, ham obyekt safiga kiritish.<sup>1</sup>

Ushbu masalada olimlar turlicha fikr bildirishgan bo'lib, bir guruh olimlar SI ning keltirib chiqargan zarari uchun kimning javobgar bo'lishi masalasini belgilashda, SI ning harakat yoki harakatsizligini kim tomonidan keltirib chiqarilganligi va uning mustaqillik darajasiga ham e'tibor berish kerak<sup>2</sup> degan masalani olg'a sursa, ikkinchi guruh olimlari esa uning mustaqilligiga tayanadi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, ushbu maqolaning asosiy maqsadi SI ning harakat yoki harakatsizligi natijasida yuzaga kelgan zarar uchun javobgarlik masalasida turli huquqiy tizimlardagi yondashuvlarni qiyosiy tahlil qilish hamda O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga amaliy takliflar berishdan iboratdir.

### **Materiallar va metodlar**

Ushbu maqolani yozish davomida tizimlilik, ilmiylik, xolislik, induksiya, deduksiya va huquqiy tahlil kabi umumiy bo'lgan metodlar qo'llanildi.

### **Tadqiqot natijalari**

Sun'iy intellektning huquqiy javobgarligini aniqlash bo'yicha qilingan tadqiqot natijalari asosida olingan xulosalarga tayanib quyidagilar taklif etiladi:

---

<sup>1</sup> Stefanchuk, M.O. (2020). Civil legal personality of individuals and features of its implementation. Kyiv: Artek

<sup>2</sup> Velykanova, M.M. (2020). Artificial intelligence: Legal problems and risks. Journal of the National Academy of Legal Sciences of Ukraine, 27(4), 185-198

*Birinchiidan*, hozirgi kunda O‘zbekiston Respublikasida SI ni turli sohalarda qo‘llash va ushbu sohalarning samaradorligini oshirish bo‘yicha bir qancha ishlar amalga oshirilgan bo‘lsa ham, bunda SI ning harakat yoki harakatsizligi natijasida yuzaga keladigan zararlarni uchun javobgarlik masalasi tartibga solinmagan bo‘lib, ushbu sohani tartibga solish uchun qonunchilikka o‘zgartirish kiritish hamda bir qancha qonunlar qabul qilish kerak. Masalan, **yuzaga kelgan zararni qoplash maqsadida** tegishli tartibda SI ni ishlab chiqaruvchi va operatorlarining javobgarligini **majburiy sug‘urta qilish mexanizmini** ishlab chiqish va ularga majburiy sug‘urta shartnomasini tuzish majburiyatini yuklash lozim bo‘ladi. Shuningdek, Jinoyat kodeksi, Fuqarolik kodeksi hamda boshqa qonun hujjatlarida SI harakatlari uchun javobgarlikni belgilash bo‘yicha tegishli normalar kiritilishi kerak.

*Ikkinchiidan*, SI keltirib chiqargan zarar uchun javobgarlikning alohida modellarini qo‘llash, kelib chiqqan zarar miqdoriga bog‘liq holatda qo‘llaniladi. Ya‘ni, qat‘iy javobgarlik (strict liability) modeli shaxsning hayoti hamda tanasiga tahdid yuzaga keltiruvchi sohalarda (masalan, sog‘liqni saqlash) ishlatilganda qo‘llanilishi mumkin.

Aybga asoslangan javobgarlik (faul-based liability) modeli esa SI ning harakatlari boshqa shaxsga ziyon keltirib chiqarsa, ya‘ni uning obro‘sigacha putur yetkazsa yokida uning shaxsiy ma‘lumotlarining sir saqlanishi haqidagi qonunni buzsa qo‘llaniladi. Ya‘ni, bunday vaziyatlarda “ayb” tushunchasining qo‘llanilishi uchun yetarlicha asoslar mavjud va uning mavjudligini isbotlash shart bo‘ladi.

Shuningdek, bo‘linuvchi javobgarlik (distributed liability) modeli ham mavjud bo‘lib, kelib chiqqan zarar uchun javobgarlikning ishlab chiqaruvchi, platforma egasi va foydalanuvchi o‘rtasida taqsimlash haqida qarashlarni ilgari suradi.

*Uchinchiidan*, SI insonga xos bo‘lgan ongga ega emas va unda faqatgina dasturlashtirilgan aql hisoblangan intellekt mavjud bo‘lib, olimlar aql ong darajasida bo‘la olmasligini ta‘kidlaydilar. Shuning uchun ham, insoniy nazorat mexanizmlarini (human-in-the-loop) SI ustidan joriy etish zarurdir. Ya‘ni, o‘ta muhim hamda dolzarb bo‘lgan qarorlar, harakatlarni qabul qilishda yakuniy qarorni qabul qilish ekspert mutaxassis hisoblangan insonga berilishi kerak.

*To‘rtinchidan*, Singapur modelidagi riskka asoslangan qarashga tayangan holatda SI ni yaratish va qo‘llashning har bir bosqichida (dizayn, ishlab chiqarish, sinovdan o‘tkazish, joylash, monitoring) ma‘sul hisoblangan javobgar shaxsni aniq belgilash uchun javobgarlik zanjiri mexanizmini tashkil etish kerak.

### **Tadqiqot natijalari tahlili**

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 17.10.2021-yildagi PQ-4996-sonli qarori SI ni sohalarda bo‘yicha joriy etishda zarur tashkiliy shart-sharoitlar yaratish haqida bo‘lib, ushbu qarorda SI texnologiyalarini o‘rganish va kengroq joriy etishga doir ishlar va tadbirlarni qilish haqida so‘z boradi. Shuningdek, davlatimiz

(14th international scientific and practical conference)

boshlig‘ining PQ-5234-sonli qarori SI ni qo‘llashda maxsus rejimni joriy etishga bog‘liq bo‘lib, hozirgi kunda ushbu rejim joriy etilgan. Shu bilan birga, SI texnologiyasini 2030-yilgacha rivojlantirish strategiyasi 2024-yil 14-oktabrdagi PQ-358-sonli qaror bilan tasdiqlangan. Ushbu normativ-huquqiy hujjatlarda sohalarda SI ni qo‘llash, bu bo‘yicha normativ-huquqiy hujjatlar bazasini shakllantirish, ushbu sohada aholining bilimlarini oshirish kabi masalalar aytib o‘tilgan bo‘lib, bunda SI ni joriy etishda yuzaga keladigan zarar uchun javobgarlik masalasi ochiq qolgan va bu masala hali ham yetarlicha tartibga solinmagan.

Bunda SI ning javobgarlik masalasini belgilashda avvalo javobgarlikning klassik tushunchasidan kelib chiqib, SI ning iroda va ongga ega emasligini ta’kidlash kerakdir. Lekin, shu ham aytib o‘tish kerakki, ular mustaqil ravishda qaror qabul qilish qobiliyatiga egadirlar. Shu sababli ham, olimlar ushbu masalani hal qilishda “bo‘linuvchi javobgarlik” (distributed liability) konsepsiyasini ilagari suradi. Ushbu konsepsiyaga asosan, javobgarlik SI ni yartaavvchi, uni ishlab chiqaruvchi, operatorlar, ma’lumot provayderlari hamda undan foydalanuvchilar o‘rtasida taqsimlanadi.<sup>3</sup> Shuningdek, ushbu masala bo‘yicha javobgarlik modellari ham shakllanib bormoqda.

Ushbu masalani hal qilishda xoriy davlatlar tajribasini o‘rganar ekanmiz, bunda AQSH da ushbu masala asosan delikt huquq (tort law) va mahsulot javobgarlik qoidalaridan kelib chiqqan holatda ko‘rib chiqilishining guvohi bo‘lishimiz mumkin. Bunda mahsulot javobgarlik qoidalarini belgilashda qat’iy javobgarlik (strict liability), kafolat buzilishi (breach of warranty) hamda beparvolik (negligence) kabi asosiy uchta nazariya qo‘llaniladi. Shuningdek, *Restatement of Torts: Product Liability (1998)* hujjatida ishlab chiqaruvchi o‘z mahsulotining ishlab chiqarishdagi nuqsoni, uning dizayn nuqsoni yoki ko‘rsatmaslaridagi kamchiliklar tufayli yuzaga kelgan xavf uchun javobgar bo‘lishi ko‘rsatib o‘tilgan.<sup>4</sup>

Buyuk Britaniyaning huquq komissiyasi (Law Commission) 2020-yilda haydovchisiz harakatlanadigan avtomobillar uchun alohida javobgarlik rejimini taklif etgan bo‘lib, ushbu rejimga asosan ishlab chiqaruvchi avtomobil mustaqil rejimda harakat qilganligi uchun ham yuzaga kelgan zarar uchun ishlab chiqaruvchi javobgar bo‘ladi. Ya’ni, ushbu yondashuv bo‘yicha javobgarlik haydovchidan ishlab chiqaruvchiga o‘tishini anglatadi. Buning birdan bir sababi esa SI ning ongga va idrokka ega emasligidir.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, anglo-sakson huquq tizimida president institutining mavjudligi sababli ham, har bir yangi holat yangi huquq normasining

---

<sup>3</sup> Hildebrandt M. Smart Technologies and the End(s) of Law: Novel Entanglements of Law and Technology. – Edward Elgar Publishing, 2015. – P. 169-192

<sup>4</sup> American Law Institute. Restatement (Third) of Torts: Products Liability. – American Law Institute Publishers, 1998. – §§ 1-2

yuzaga kelishiga sabab bo‘lishi mumkin. Lekin, ushbu tizimida huquqiy aniqlikning yetishmasligi tufayli turli sudlar tomonidan turlicha qarorlar qabul qilinishi mumkin.

Shuningdek, romono-german huquq tizimidagi davlatlardan Germaniyada Avtonom haydash qonunining (*Gesetz zum autonomen Fahren*) 2021-yilda qabul qilinishi SI harakatlari uchun javobgarlikni belgilashda tashlangan ilk qadamlardan biri bo‘ldi desak mubolag‘a bo‘lmaydi. Ushbu qonun 4-darajali avtonomlikka ega avtomobillarga yo‘l harakatida ishtirok etishga ruxsat beradi va javobgarlik mexanizmlarini aniq belgilaydi. Qonunning 1A-moddasi bo‘yicha, avtonom avtomobil egasi majburiy sug‘urta tuzishi shart, bu esa zararni qoplashning kafolati hisoblanadi.<sup>5</sup> Qiziq tomoni shundaki, haydovchi avtomobil avtonomlik rejimida bo‘lganida sodir etilgan qoidabuzarliklar uchun javobgar bo‘lmaydi, lekin tizim nazoratni qaytarishni talab qilganda javob berish majburiyati qoladi.

Fransuz huquqshunos olimlari SI ning javobgarligini “xatarsiz javobgarlik” (responsabilite sans faute) konsepsiyasi orqali tushuntirishadilar. Ya’ni, ushbu konsepsiya Fransiya Fuqarolik kodeksining 1242-moddada belgilangan buyumlar nazorati uchun javobgarlik prinsipidan kelib chiqadi.<sup>6</sup> Cour de cassation 2020-yilda bir qarorida robotlashtirilgan tizim sabab bo‘lgan zarar uchun tizim egasining javobgarligini tasdiqladi, garchi u bevosita aybdor bo‘lmasa ham.

Mamlakatimizda ham sohalarda SI ni qo‘llash bo‘yicha qator hujjatlar qabul qilinishiga qaramasdan, javobgarlik masalasi to‘liq yoritilmayapti. **PQ-5234-son qarorga muvofiq**, maxsus rejim ishtirokchilari uchun IT-park rezidentlariga berilgan imtiyozlar va preferensiyalar tatbiq etiladi, xodimlar malakasini oshirish xarajatlari davlat tomonidan kompensatsiya qilinadi, zarur ma’lumotlarga ega bo‘lish huquqi beriladi.<sup>7</sup> Ammo, SI tizimlarining xatosi natijasida zarar yetkazilgan hollarda kim javob berishi masalasi aniq belgilanmagan. Shuningdek, Fuqarolik kodeksimizda zarar uchun javobgarlikni belgilovchi normalar faqatgina yuqori xavfli obyektarga nisbatan belgilanganligini va ushbu holatda obyekt egasi unga javobgar bo‘lishini ko‘rishimiz mumkin. Ushbu holatda biz SI ni qo‘llagan yuqori xavfli sohalarda (tibbiyot, transport, sanoat kabi) ushbu normani qo‘llashimiz mumkinmi degan savol yuzaga keladi. Lekin, kodeksda “yuqori xavfli obyekt” deganda asosan qurilish inshootlari, transport vositalari, shuningdek zararli mahsulotlar nazarda tutilganligini ko‘rishimiz mumkin. Ya’ni ushbu tushuncha SI tizimlarini qamrab olmaydi. Shuning uchun ham, tegishli o‘zgartirishlar kiritishimiz zarur.

Shuningdek, SI ga nisbatan hayvonlar harakatini va ularning harakati uchun javobgarlikni tartibga soluvchi normalarni qo‘llash kerak degan yondashuv ham

---

<sup>5</sup> Straßenverkehrsgesetz (StVG). § 1a-1e. – Bundesgesetzblatt, 2021. – I. – S. 814-820

<sup>6</sup> Code civil français. Articles 1240-1242

<sup>7</sup> O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, 26.08.2021 yildagi PQ-5234-son Sun‘iy intellekt texnologiyalarini qo‘llash bo‘yicha maxsus rejimni joriy qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida <https://lex.uz/docs/-5603319#-5605295>

mavjud. Sababi, hayvonlar ham mustaqil harakatlana oladi. Shu bilan birga, yuridik shaxs huquqning sun'iy shakllantirilgan subyekt bo'lganligi, robotlar va SI tizimlarini ham shunday maqom bilan belgilash mumkin bo'lganligi sababli ham ushbu tizimlarga nisbatan yuridik shaxslar to'g'risidagi normalarni qo'llash taklifi ham mavjud. Masalan, SI boshqaradigan kontent muallifligi kimga tegishli ekani belgilansa, masala yanada oydinlashadi. Ya'ni fikrimizcha, o'sha AI yoki u yaratgan kontent kimga tegishli bo'lsa, o'shani javobgarlikka tortish eng samarali yo'ldir.

**Singapur Model AI Governance Framework (2020)** eng ilg'or tajribalardan biri sanaladi. Bu framework ikki asosiy prinsipga asoslanadi: birinchidan, SI qarorlarining shaffofligi va tushuntiriluvchanligini ta'minlash; ikkinchidan, insoniy nazorat mexanizmlarini (human-in-the-loop) o'rnatish. Singapur yondashuvida "javobgarlik darajalarining shkalasi" joriy etilgan – SI tizimining mustaqilligi oshgan sari ishlab chiqaruvchining javobgarligi ortadi, lekin foydalanuvchining nazorat majburiyati kamayadi.<sup>8</sup> Bu yondashuv muvozanatli va amaliy jihatdan samarali tarzda qo'llanish mumkin.

### **Xulosa**

Yuqorida keltirib o'tilgan xorijiy tajribalar, tadqiqot natijalari va olimlarning fikr-mulohazalarini tahlil qilish natijalaridan kelib chiqib quyidagi takliflar beriladi:

- Fuqarolik huquq va jinoyat huquqi qonunchiligida SI ning harakatlari natijasida yetkazilgan zarar uchun javobgarligini belgilash;
- SI ning hayot siklining har bir bosqichida javobgar shaxslarni aniq belgilash va javobgarlik zanjiri mexanizmlarini shakllantirish;
- zararni qoplash uchun majburiy sug'urta mexanizmlarini o'rnatish;
- SI ni ishlatish davomida insoniy nazorat mexanizmlarini joriy etish.

Sun'iy intellektning harakat yoki harakatsizligi uchun javobgarlik masalasi zamonaviy huquqning eng murakkab masalalaridan biridir. Mamlakatimiz xalqaro tajribani va olimlarimiz tomonidan ilgari surilgan takliflarni inobatga olib, o'z milliy qonunchiligida SI javobgarligini tartibga soluvchi samarali mexanizmlarni yaratishi zarur. Bu fuqarolarning huquqlari va manfaatlarini himoya qilishni ta'minlash bilan birga, ham ta'minlaydi. Algoritm ishlab chiquvchilaridan tortib oxirgi foydalanuvchilargacha bo'lgan barcha subyektlar o'z mas'uliyatlarini anglashlari va SI tizimlarining shaffofligi, izohlanuvchanligi hamda insoniy nazorat mexanizmlari ta'minlanishi zarur.

---

<sup>8</sup> Personal Data Protection Commission Singapore. Model Artificial Intelligence Governance Framework, Second Edition. – 2020. – P. 18-35

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 17-fevraldagi "Sun'iy intellekt texnologiyalarini jadal joriy etish uchun shart-sharoitlar yaratish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4996-son qarori // <https://lex.uz/docs/-5297046>
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 26-avgustdagi "Sun'iy intellekt texnologiyalarini qo'llash bo'yicha maxsus rejimni joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-5234-son qarori // <https://lex.uz/docs/-5603319>
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 14-oktabrdagi "2030-yilgacha sun'iy intellekt texnologiyalarini rivojlantirish strategiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PQ-358-son qarori // <https://lex.uz/docs/-7158604>
4. Hildebrandt M. Smart Technologies and the End(s) of Law: Novel Entanglements of Law and Technology. – Edward Elgar Publishing, 2015. – P. 169-192.
5. American Law Institute. Restate ment (Third) of Torts: Products Liability. – American Law Institute Publishers, 1998. – §§ 1-2.
6. UK Law Commission. Automated Vehicles: Consultation Paper on Passenger Services and Public Transport. Law Com No 245. – 2020. – P. 45-78.
7. Straßenverkehrsgesetz (StVG). § 1a-1e. – Bundesgesetzblatt, 2021. – I. – S. 814-820.
8. Code civil français. Articles 1240-1242.
9. Stefanchuk, M.O. (2020). Civil legal personality of individuals and features of its implementation. Kyiv: Artek
10. Velykanova, M.M. (2020). Artificial intelligence: Legal problems and risks. Journal of the National Academy of Legal Sciences of Ukraine, 27(4), 185-198
11. Personal Data Protection Commission Singapore. Model Artificial Intelligence Governance Framework, Second Edition. – 2020. – P. 18-35.